

BOLALAR-O'SMIRLAR  
SPORT MAKTABLARIDA  
MA'NAVIYATLI SPORTCHI-YOSHLARNI  
TARBIYALASHNING DOLZARB  
MASALALARI

USLUBIY KO'RSATMA



Toshkent – 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA  
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI  
OSHIRISH INSTITUTI**

**Hasanov A. X.**

**BOLALAR-O'SMIRLAR SPORT  
MAKTABLARIDA MA'NAVIYATLI  
SPORTCHI-YOSHLARNI  
TARBIYALASHNING DOLZARB  
MASALALARI**

BO'SM rahbarlari, rahbar o'rindbosarlari, instruktor-metodistlar va  
trener-o'qituvchilar uchun uslubiy ko'rsatma

Toshkent – 2021

**UO‘K: 796.077.5:37**

**KBK: 75**

**H 31**

Hasanov A.X.

Bolalar-o'smirlar sport maktablarida ma'naviyatli sportchi-yoshlarni tarbiyalashning dolzARB masalalari [Matn]: uslubiy qo'llanma / A.X. Hasanov.- Toshkent: "Umid Design", 2021.-36 b.

Mazkur uslubiy qo'llanmada jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom yoshlarni tarbiyalashda sportning o'rni va ahamiyati keng ko'rsatib berilgan. Bolalar-o'smirlar sport maktablari rahbarlarining ta'lim muassasasini boshqarishdagi rahbarlik madaniyati masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Uslubiy qo'llanmada yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashning muhim masalalari bilan birgalikda yosh sportchilarda g'oyaviy immunitetini shakllantirish masalalari, o'quvchi-yoshlarni ogohlik va hushyorlik ruhida tarbiyalash, globallashuv davri ta'lim-tarbiyasida trener-o'qituvchilar mas'uliyati kabi dolzARB masalalari yoritib berilgan.

**Taqrizchilar:**

S. R. To'rayev. Nizomiy nomli TDPU dotsenti, tarix f.n.

Z. A. Dexkambayeva Pedagogika va psixologiya kafedrasи dotsenti, p.f.n.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarни ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi ilmiy-metodik kengashi majlisining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan. (2019- yil 4-iyun, 6-sonli bayonnoma).

## KIRISH

Mustaqil O'zbekiston davlati chorak asr davomida barqaror rivojlanib, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdek yuksak maqsadga qaratilgan murakkab yo'lni bosib o'tdi hamda ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatda iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ma'naviy ma'rifiy va madaniy sohalarda olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati beqiyosdir. O'zbekistonda yoshlar masalasi, yuksak ma'naviyatlari barkamol avlodni voyaga etkazish kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, yurtning kelajagi aql-zakovatli, bilimli, har tomonlama sog'lom va yuksak ma'naviyatlari yoshlarga har tomonlama bog'liq.

Har qanday jamiyat o'z ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda e'tiqodga aylantirmay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Shu ma'noda o'z haq-huquqini taniydig'an, kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydig'an, atrofida ro'y berayotgan voqe'a-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda tasavvur etadigan erkin shaxsnı shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shu mezonlarga asosan jamiyatimizda tizimli ma'naviy tarbiya olib borilmoqda, barkamol avlod voyaga etmoqda. Biron-bir jamiyatning taraqqiyoti, kelajagi, avvalo, uning ma'naviy poydevori qanchalik mustahkamligi bilan belgilanadi. Har bir shaxsnинг, pirovardida xalq va millatning ma'naviy yuksalishi esa ming yillar mobaynida shakllangan, sayqal topib kelgan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarga sodiqlik, milliy-madaniy merosni e'zozlash, o'zlikni anglash, insoniy komillikká intilish, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini egallah orgali ta'minlanadi. Mamlakat va millat taqdiri bilan bog'liq jarayonlarda fuqarolarning chin e'tiqodi, hushyorlik va ma'suliyati, yaxshini yomondan, aslni soxtadan farqlay olishi ma'naviyat darajasining mezoni sifatida maydonga chiqadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi. Natijada, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizning, madaniyatimizning asosi bo'lgan milliy qadriyatlarni tiklash, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohasida ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Bolalar va o'smirlar sport maktablarida sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazish yo'lida

ma’naviy-ma’rifiy ishlarni, xususan, sport tadbirlarini muntazam va tizimli tashkil etish, ularni boshqarish hamda samaradorligini oshirish bugungi kunning o’tkir talabidir. “Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlari” eng avvalo bugungi kunda eng dolzarb hisoblangan milliy g‘oya assosida yoshlarni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g‘oyalarga sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalashga, shuningdek, yoshlarni ma’naviy tajovuzlardan ogohlikka chorlash, ularning mohiyatini anglab etishga qaratilgan tizimli va maqsadli amaliy xarakatlar majmuidir.

Mamlakatimizning kelajagi, erkinligi va farovonligi, uning XXI asrda jahon hamjamiyatida qay darajada o‘rin egallashi eng avvalo yosh avlodning qanday insonlar bo‘lib voyaga etishi bilan bog‘liqdir.

Zamonaviy va etuk avlodni tarbiyalashning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, yoshlarimiz ongiga Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga egadir. Ayniqsa, xalqaro maydonda mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot xurujlari kuchayib borayotgan hozirgi murakkab sharoitda ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etish, o‘quvchi-yoshlarni turli ma’naviy, mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, hayotga ongli munosabatni shakllantirish, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni hosil qilish, mamlakatimiz mustaqilligi va tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan turli tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi ushbu sohadagi faoliyatimizni yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Mamlakatimizning har bir fuqarosi, xususan o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom turmush tarzi negizida shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi mushkuldir.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari hozirgi davrda har qachongidan ham ko‘ra muhim ahamiyat kasb etadi: “Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e’tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirishdir. Ya’ni, mustaqil dunyoqarashga ega ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat”. Bu boradagi fikrni mantiqiy

davom ettirib, “Ma’naviy taxdid va hurujlarga qarshi kurashda, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda”, deb ta’kidlaydi.

“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” doirasida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan tadbirlarda Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda» deb ta’kidlanadi. Shuningdek, aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o‘rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o‘rnii va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo‘naltirilgan suhbat va uchrashuvlar, ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoev o‘zining birqancha ma’ruzalarida quyidagi fikrlarni qayta-qayta takrorladi: Mustaqillik tufayli biz dunyo hamjamiyatining teng huquqli a’zosi bo‘lib, yorug‘ kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan bunyod etmoqdamiz. Istiqlol yillarda erishgan yutuqlarimizga tayanib, milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari dadil qadam qo‘ymoqdamiz.

Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muttazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratildi, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona-Vatanga sadoqat

tuyg‘ularini kamol toptirish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va maqsadli tayyorlash ishlarini tizimli tashkil etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalgga oshirildi.

So‘nggi o‘n yilda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasining tez su’ratlar bilan rivojlanishi natijasida yangi sport turlari, yangi soha bazalari, sport uskunalar, inventarları va texnologiyalari ya’ni sport industriyasi rivojlanmoqda. O‘tgan davr mobaynida 1700 dan ortiq sport majmualari qurilib, foydalanish uchun topshirilgan. Raqobatchilik sharoitida sport tashkilotlari samarali faoliyat ko‘rsatishga harakat qilmoqdalar.

Hozirgi davrda jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat olib borish uchun zamon talablariga javob beradigan malakaviy etuk professional mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa o‘z navbatida jismoniy-tarbiya va sport sohasining boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirishni taqoza etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdag‘i “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sون Farmonida O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzulmani yaratish, mamlakatning xalqaro maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minalash borasida izchil chora-tadbirlar amalgga oshirilayotganligi, lekin jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qator tizimli muammolar va kamchiliklarning mavjudligi ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borishga va mamlakatning mavjud salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqliklar mavjudligi ta’kidlab o‘tilgan.

Mazkur uslubiy ko‘rsatmaning maqsadi bolalar-o‘smirlar sport maktablarida yosh sportchilarni tarbiyalash ishlarini takomillashtirish va shu yo‘nalishda soha mutaxassislariga uslubiy tavsiyalar berishdir. Zero, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tarkibida sport tadbirlarining o‘rnii va ahamiyati beqiyosdir. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish yoshlarni sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga etishlarida muhim o‘rin tutadi. Yoshlarning jismoniy barkamolligini ta’minalash, iqtidorli sportchilarning mahoratini davr talabi va xalqaro andozalar asosida takomillashtirib borish, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga davlatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda.

## **I. Jismoniy va ma’naviy sog‘lom yoshlarni tarbiyalashda sport turlari muhim vosita**

Mustaqillik sharofati bilan millatimizning bu ezgu maqsadi barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov aytgan edi: “... nimaniki o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ymaylik, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha oljanob harakatlarimizning negizida, barcha ezgu niyatlarimizning zamirida farzandlarimizni ham jismonan, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom etib o‘stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko‘rish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi mujassamdir”.

2003-2015 yillar davomida Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan 2205 ob‘ekt qurilib, foydalanishga topshirildi. Shulardan 1922 tasini sport inshootlari, 283 tasini bolalar musiqa va san‘at maktablari hamda 96 tasini suzish havzalari tashkil qiladi. 2005 yilda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning 30 foizi, qishloq joylarida esa 29 foizi sport bilan muntazam shug‘ullangan bo‘lsa, 2015 yilda bu raqamlar 57,2 va 56 foizni tashkil etdi. Mavjud sport inshootlaridagi 120 nomdagи sport jihozlarining 119 turi mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilmoqda.

Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi Homiylik kengashining 2016 yil 11 fevraldagи yig‘ilishida Islom Karimov sportning nafaqat yoshlar jismoniy barkamolligi, balki ma’naviy, axloqiy tarbiyasi, shaxs sifatida shakllanishi, millat va mamlakat taqdiridagi bebaho ahamiyati haqida ko‘proq to‘xtaldi hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, bolalarimizning irodasini toblast, mard va jasur etib tarbiyalashda sport muhim omil ekaniga qaratildi. Sport bolalarni yovuz maqsadli g‘oyalardan, zararli oqimlardan asrashi ta’kidlandi.

Mustaqillikdan ilgari yurtimizda sport bilan ommaviy shug‘ullanish uchun sharoit deyarli yo‘q edi. Hozirgi sport saroylari, zamonaviy suzish havzalari, tennis kortlari etti uxbab tushimizga ham kirmagan edi. Buning ustiga og‘ir mehnatni qilib, og‘ir sharoitda kun kechirgan, to‘yib ovqat emagan, sifatlari tibbiy-xizmat nimaligini bilmagan xalqimiz salomatligiga katta ziyon etgan edi.

Sport nafaqat jismoniy barkamollik yoki salomatlik garovi, balki ma’naviy, madaniy, axloqiy tarbiya ekani, yoshlarni tartib-intizomga o‘rgatadigan, matonat va jasoratdan saboq beradigan, hayot sinovlarini dadil engib o‘tishga tayyorlaydigan muhim vositadir. Kishiga o‘z sha’ni, jamoa

sha’ni, Vatan sha’nini mardona himoya qilishni o‘rgatadigan o‘ziga xos dorilfunundir.

Sport insonga, har bir millatga olam-olam hayajon, quvonch, baxt hadya etadigan mo‘jizadir. Uning bu xosiyatlarini boshqa biror sohadan topib bo‘lmaydi.

Sportchilarimiz xalqaro musobaqlarda g‘olib chiqib, shohsupaga ko‘tarilganda, davlatimiz madhiyasi yangrab, bayrog‘i mag‘rur hilpirab turganida butun xalqimiz, O‘zbekistonimiz bir tan, bir jon bo‘lib shohsupaga ko‘tariladi... Sport millatni birlashtiradigan, unga shijoat, kuch-quvvat, g‘urur bag‘ishlaydigan qudratli kuchdir.

Shuni ham aytish kerakki, har bir sportchi xalqaro maydonda o‘z mahorati, mardligini namoyish etar ekan, avvalo, o‘zini, Vatanini, millatini dunyoga tanitadi, o‘z yurti, xalqi haqida tasavvur uyg‘otadi. Mamlakatning, millatning nomini ulug‘laydi, sha’nini ko‘kka ko‘taradi. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz Islom Karimov doim ta‘kidlar edi: “sport salomatlikni mustahkamlash bilan birga, har qaysi mamlakat, har qaysi davlatni olamga mashhur qiladigan beqiyos vositadir”.

Bugun esa bolalar sportini yanada rivojlantirish uchun ko‘p imkoniyatlarga egamiz. Har bir mahalla va qishloqda an‘anaviy sport musobaqlarini yo‘lga qo‘yish, bu ishlarni o‘sha joyda yashovchi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va faxriy sportchilarni jalb etish orqali amalga oshirish samarali bo‘ladi.

Ma‘lumki, mahalla fuqarolar yig‘inlariga tobora katta huquq, vakolat va imkoniyatlar berilmoqda. Hozir kam ta‘minlangan oilalarni himoya qilishdan tortib, ma‘rifiy, diniy ishlaru, arazlashib qolgan er-xotinni yarashtirib qo‘yadigan mas‘ullargacha, mahalla posbonigacha bor. Ammo bolalar sporti bilan kim shug‘ullanadi? Bu masala eng asosiy vazifalardan emasmi? Hozir jamiyatni tashvishga solayotgan ko‘pdan-ko‘p muammolarning ildizi aynan bolalar va yoshlар tarbiyasi bilan bog‘liq emasmi?

Yana bir nozik va muhim masala bolalarning darsdan bo‘s sh vaqtini tashkil etish, ularni nazoratsiz qoldirmaslikdir. Sportning beqiyos ahamiyatini hisobga olib, fuqarolar yig‘inlari qoshida bolalar sporti yo‘riqchisi yoki murabbiyi shtati tashkil etish masalasi ustida fikr yuritib ko‘rilsa, bu taklifni ehtimol ko‘pchilik qo‘llab-quvvatlaydi.

Bolalar sporti haqida gap ketganda, maktabgacha ta‘lim muassasalari to‘g‘risida kamroq gapiramiz, go‘yo bu sohada hamma ishlar joyidagidek. Yoki jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining o‘zi etarli deb hisoblaymiz.

Avvalo o‘ylab ko‘raylik, bugun bolalar bog‘chalarining necha foizi jismoniy tarbiya yoki sport tarbiyachisi bilan ta’milangan? Ulardan qanchasida bu mutaxassisliklarga ehtiyoj bor? Sport yoki musiqa zallari zarur inventarlar bilan to‘la jihozlanganmi?.. Bugungi talabdan kelib chiqib, masalaga yondashadigan bo‘lsak, bolalar bog‘chalarida jismoniy tarbiya va sportni zamonga mos darajada yo‘lga qo‘yish lozimligini anglaymiz. Ayrim mutaxassislar fikricha, tegishli tashkilotlar hamkorligida, albatta, Sog‘liqni saqlash vazirligi ishtirokida, ushbu masalani qayta ko‘rib chiqib, bolalarga mos sport o‘yinlarining mukammal dasturini tayyorlash kerak bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 20-sentyabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi. Sportchilarni tanlab olish – seleksiya ishlarni takomillashtirish bo‘yicha yangi tizim joriy etilib, bu o‘zining dastlabki natijalarini bera boshladi. Avgust-sentyabr oylarida Indoneziyada o‘tkazilgan Osiyo o‘yinlarida O‘zbekiston vakillari 21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza – jami 70 ta medalni qo‘lga kiritishdi. O‘zbekiston delegatsiyasi umumiyligi reytingda 5-o‘rinni egallab, o‘zbek sporti tarixida eng yaxshi natijani qayd etdi.

«Biz xalqaro sport maydonlarida O‘zbekistonning nufuzi va obro‘-e’tiborini oshirishga katta hissa qo‘sghan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliv sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e’tibor berishimiz kerak», – dedi yig‘ilishda Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha istiqboldagi muhim vazifalar belgilab berildi. Aholi, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullantirish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmagani, darsdan tashqari vaqtarda ta’lim muassasalaridagi sport ob‘ektlaridan barcha yoshdag‘i odamlarning foydalanishi tashkil etilmagani ko‘rsatib o‘tildi.

Bundan tashqari, joylardagi bo‘sh turgan xususiy ob‘ektlar negizida aholini ommaviy sportga jalb qilish uchun imtiyozli xizmat ko‘rsatuvchi sport markazlarini tashkil etish talab etiladi.

Shu bois Jismoniy tarbiya va sport vazirligi Yoshlar ittifoqi, tegishli vazirliklar bilan birgalikda ta’lim muassasalaridagi sport inshootlari hamda bo‘sh turgan ob‘ektlarda sport seksiyalarini ochish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarni ko‘rishi zarurligi ta’kidlandi.

Tuman, shahar, viloyat va respublika miqyosida sport musobaqalari sonini keskin ko‘paytirish, g‘olib va sovrindorlarni Yoshlar ittifoqi

mablag‘lari hisobidan pullik mukofotlar bilan rag‘batlantirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Aholi, ayniqsa, yoshlarni sportga keng jalb qilish uchun «Alpomish» va «Barchinoy» testlarini musobaqa tarzida o‘tkazishni hamda uch darajadagi ko‘krak nishonlari bilan taqdirlashni joriy qilish vazifasi qo‘yildi. Korxonalar, ta’lim muassasalari, istirohat bog‘larida ommaviy badantarbiya va gimnastika mashg‘ulotlarini o‘tkazish e’tibordan chetda qolib ketgani qayd etildi. Bunday mashqlarning inson salomatligi uchun foydaliligini targ‘ib qilish maqsadida doimiy ko‘rsatuv va ijtimoiy roliklar tayyorlab, televidenie orqali namoyish etish lozimligi ta’kidlandi.



«Mamlakatimizda sportni ommalashtirish bo‘yicha besh yillik milliy konsepsiya ishlab chiqish zarur. Aholini jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanib, sog‘lom turmush kechirishga jalb etish, shu orqali kasalliklarning oldini olib, odamlarning umrini uzaytirish konsepsiyaning asosiy yo‘nalishi va natijasi bo‘lishi kerak», – dedi Prezident.

Yig‘ilishda federatsiyalarning ishi sustligi sababli ot sporti, suzish, qilichbozlik, o‘q otish va jamoaviy sport turlari bo‘yicha xalqaro musobaqlarda yaxshi natijalarga erishilmayotgani tanqid qilindi. Shu bois Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan va Toshkent viloyatlarida tashkil etilayotgan olimpiya tayyorgarligi markazlarini 2020 yilga qadar

foydalanishga topshirib, ularda Xitoy tajribasini qo'llash, ya'ni sportchilarning markazda doimiy istiqomat qilib, maqsadli tayyorgarlik ko'rish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Mutasaddi rahbarlarga barcha sport federatsiyalari faoliyatini tanqidiy o'rganib, ularning ishini, ayniqsa, seleksiya yo'nalishini tubdan yaxshilash, rahbar kadrlarning mas'uliyatini oshirish topshirildi.

Malakali murabbiylar kamligi, xususan, qishki sport turlari bo'yicha mutaxassislar yetishmasligi qayd etildi. Jismoniy tarbiya va sport vazirligiga murabbiylar tayyorlashni takomillashtirish, ularga litsenziya berish mexanizmini soddalashtirish vazifasi qo'yildi.

Bolalar sporti inshootlarini barpo etish, qurilishda zamonaviy tejamkor texnologiyalardan foydalanish masalalariga ham e'tibor qaratildi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan joriy yilda 56 ta sport ob'ektini qurib, foydalanishga topshirish, ushbu maqsadlarga 362 milliard so'm mablag' sarflanishi belgilangan. Lekin 10 sentyabr holatiga ko'ra, atigi 113 milliard so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilgan. Sirdaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida qurilish ishlari orqada qolmoqda.

Tegishli vazirlik va tashkilotlarga sport ob'ektlarida qurilish-ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida yakunlash, Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasining 2019 yilgi manzilli dasturini shakllantirish bo'yicha topshiriq berildi.

Yig'ilishda 2020 yil Tokioda o'tadigan Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik masalasi ham muhokama qilindi. Mamlakatimiz sportchilarining ko'plab litsenziyalarni qo'lga kiritishi hamda munosib ishtirok etishi uchun tayyorgarlikni kuchaytirish bo'yicha vazifalar belgilandi.

## **II. Bolalar-o'smirlar sport maktablari boshqaruvida rahbarlik madaniyati**

Hozirgi davr rahbardan pedagogik odob va axloq egasi bo'lishni, tadbirkor, talabchan bo'lishni, mustahkam irodali ekanligini ko'rsata olishni talab etadi. Ayniqsa, rahbar shaxs O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdag'i 62-sonli "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi qarori"ning mazmun-mohiyatini to'liq bilishi va ta'lim muassasasi jamoasi o'rtaida o'rganishni tashkil etishi lozim.

Binobarin, rahbar faqat boshliq emas, balki murabbiy ham bo‘lishi bilan birga, o‘zini ishonchli odam, ishchan va epchil xizmatchi sifatida ko‘rsata olishi, xayrixohlik bilan hamsuhbatini tinglay olishi, o‘zining sabrsizligini, ayniqsa, beparvoligini va suhbatdoshni yoqtirmasligini sezdirmasligi kerak bo‘ladi. Shuningdek, rahbar sport maktabida murabbiylar bilan to‘g‘ri munosabatni o‘rnata bilishi, qarindosh-urug‘chilik va oshna-o‘aynigarchilikka yo‘l qo‘ymasligi, BO‘SM xodimlarining hayotiy muammolarini echishga yordam berishi, moliyaviy masalalarda haqgo‘y va beg‘araz bo‘lishi, psixologik muhit (iliq ruhiy iqlim)ni yarata olishi va jamoada hamkorlikni yo‘lga qo‘ya olishi ayni muddaodir.

BO‘SM rahbarining ish uslubi, omilkorligi va tadbirkorligi bugungi kun talablariga mos kelishi darkor, undan tashabbuskorlik va eng muhimi, ijodiy fikr yurgizish qobiliyati talab qilinadi. BO‘SM rahbari boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan shaxsiy sifat va fazilatlar bilan birga, yuksak bilimga, siyosiy ong va tafakkur egasi bo‘lishi,adolatlari va kamtarin inson bo‘lishi, sezgir va e’tiborli bo‘lib, pedagogik jamoa, ota-onalar, jamoatchilik fikrini ilg‘ay olishi, keng dunyoqarashli, izlanuvchan, ilg‘or g‘oyalarga ijobiy baho beruvchi shaxs bo‘lishi ham talab etiladi.

BO‘SM rahbari muloqotda o‘z qarorini bildiribgina qolmay, jamoaga ta’sir ko‘rsatishi, ularda qarorni yaxshiroq bajarish uchun tashabbus va xohish uyg‘otishi zarur. Rahbarning qo‘pol gapirishi, baqirishi, so‘kinishi qat’ian man qilinadi, chunki uning shaxsiy obro‘sisi ko‘p jihatdan o‘z fikrini qay tarzda bildirishiga, qanday so‘zlashiga ham bog‘liq. Rahbar pedagogik intuitsiya, odob, nazokat egasi bo‘lishi lozim.

BO‘SM va boshqa sport ta’lim muassasalarida rahbarlar bugungi axborotlashuv, tezkor o‘zgarishlarni anglab etishi va ularga vaqtida javob berishi juda ahamiyatlidir. Bugungi kunning rahbari bilimli, o‘qib-uqib olgan, har bir soha bilimlarini muntazam egallay oladigan, o‘zi uchun yangilik yarata oladigan, ma’naviy dunyosi qanchalik boy bo‘lsa, jamoa hayoti mazmunan shunchalik boy va qiziqarli bo‘ladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan rahbar kadrlarga qo‘yilgan asosiy talablar yoki rahbar qanday bo‘lishini har bir qadamda eslab turadigan quyidagi sifatlarga e’tibor beraylik:

-rahbar ko‘ngli ochiq, qalbi va ko‘ngli toza, yuksak aql-zakovat sohibi, salohiyatlari va har tomonlama shakllangan bo‘lishi kerak;

-rahbar o‘zini tarbiya qilgan, bilim va maxorat bergen. ishonch bildirilib, yuksak martabaga munosib ko‘rgan el-yurtiga halol xizmat qilishi, zimmasidagi masuliyatni doimo xis qilib yashamog‘i kerak;

-rahbar aqlli, tajribali, o‘z ishining bilimdoni bo‘lgan mutaxassislarga tayanmog‘i, ularning fikriga qulqoq solmog‘i va shunga asoslanib xulosa chiqarmog‘i lozim;

-rahbarning barcha ishlari xalqimiz hayotiga ijodiy ta’sir ko‘rsatmog‘i kerak. Kimlargadir yaxshi ko‘rinish, maqtanish uchun qilingan ish rahbarni obro‘sini to‘kadi;

-rahbarda xalqi va Vataniga fidoiylik, tashabbuskorlik, qat’iyat va talabchanlik bo‘lishi shart. Talabchanlikni zo‘ravonlikka, kat’iyatni manmanlikka aylantirish o‘ta kaltabinlikdir. Manmanlik, zo‘ravonlik, o‘zgalar fikriga qulok solmaslik rahbar kadrlarni yaxshi mutaxassislar, fidoyilar, sodda va samimi odamlardan uzoqlashtirib qo‘yadi. Rahbarning qo‘l ostidagi murabbiy va mutaxassislarini ko‘pchilik oldida shaxsiga tegib haqoratlashi uning ojizligidan, o‘z vazifasiga noloyiqligidan darak beradi;

-rahbar hech qachon fisqu-fasod va g‘iybat, maishatbozlikka va axloqsizlikka berilmasligi kerak. Rahbar o‘zidan oldingi rahbarda ishlagan yaxshi mutaxassislarini ishdan bo‘shatishi va o‘ziga raqib deb bilishi achinarli hol bo‘lib, muassasa manfaatlariga jiddiy zarar etkazadi;

-rahbar maqtovdan boshi aylanib, “dohiylik kasali”ga chalinib qolmasligi kerak. Chunki bunday rahbarlar atrofida o‘z manfatlarini o‘ylovchi “maslahatgo‘ylar”, “amalparast”, lagambardor, poraxo‘r, oddiy odamlarga zug‘um o‘tkazuvchi odamlar to‘planib qoladi va oqibatda xalq va davlat manfaatlariga jiddiy ziyon etadi;

-rahbar nafs balosiga qarshi turmog‘i, o‘z xodimlarini ham bu balodan asramog‘i kerak. Rahbar aslo adolatsizlikka yo‘l qo‘ymasligi, barchani teng ko‘rishi, kadrlarni o‘ziniki yoki begonaga ajratmasligi zarur;

-rahbar o‘z shaxsiy hayoti va turmush kechirishida ham boshqalarga o‘rnak bo‘lishi, barcha ishlari ochiq va oshkora bo‘lishi lozim hamda vaqtiga qo‘qish bilan BO‘SM xodimlari oldida hisobot berib turishi rahbarga obro‘keltiradi;

-rahbar o‘z g‘oyasi, fikri, harakat dasturiga ega bo‘lishi bilan birga, barchani ona-yurt taraqqiyotiga, xalqimizning tinch-totuvligi, farovonligi yo‘lida yagona g‘oya atrofida jipslashtirishi shart.

—“Ommaviy madaniyat”, narkobiznes, odam savdosi va missionerlik kabi milliy va diniy qadriyatlarimizga bolta uradigan buzg‘unchi g‘oyalar va chaqiriqlar juda ko‘p uchraydi.

### **III. Yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashning dolzARB masalalari**

Hozirgi kunda dunyoda sodir bo'layotgan milliy va diniy nizolar, urushlar hamda terrorchilik harakatlarining kuchayishiga bundan manfaatdor bo'lgan tashqi kuchlar ta'siridagi ommaviy axborot vositalarining informatsion xurujlari ham sabab bo'lmoqda. Informatsion xurujlarning xavfli tomoni shundaki, ular tezkorligi, ko'zga ko'rinasligi, chegara bilmasligi, aniq maqsadga yo'naltirilganligi kabi xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov bugungi globallahuv davrida mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash qanchalik muhimligini ta'kidlab: "Hozirgi axborot, kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar dolzARB va ustuvor bo'lib borayotgani haqida gapirib o'tirishga hojat yo'q", degan edilar.

Haqiqatan ham, bugungi kunda axborot xurujini tashkil etuvchi va tarqatuvchi asosiy maydon internet tarmog'i ekanligi hech kimga sir emas.

Internetda xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm, "Ommaviy madaniyat", narkobiznes, odam savdosи hamda missionerlik kabi milliy va diniy qadriyatlarimizga bolta uradigan buzg'unchi g'oyalarga chaqiriqlar juda ko'p uchraydi. Yovuz kuchlarning internet orqali hujumlari, asosan, yoshlarga qaratilgan bo'lib, ular o'smirlar uchun qiziqarli bo'lgan vositalardan ustalik bilan foydalanishmoqda. Jumladan, yoshlarning qiziqishlariga qarab, ularni turli videolavhalar va fotosuratlarni tomosha qilishga jalb etish orqali yoki tashqi ko'rinishidan go'yoki o'yin, texnika, sportga doir bo'lsa-da, lekin ichki sahifalarida esa faqat buzg'unchilikni singdiruvchi veb-jurnallarni taqdim etmoqda. Yoshlar esa internet tarmog'ining eng ko'p foydalanuvchi qatlamidir. Internetning kuniga 24 soat davomida to'xtovsiz ishlashi va uni to'liqligicha nazorat qilishning iloji yo'qligini hisobga oladigan bo'lsak, sportchi o'quvchi-yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoyalash masalasi nechog'lik eng dolzARB muammoga aylanganini anglab etamiz.

Hozir shunday bir davrda yashayapmizki, buzg'unchi shaxs internet orqali dunyoning bir chetida turib, bu chetidagi odamga o'z g'oyasini singdira oladi. Ayniqsa, bugungi kunda dunyoda quyidagi holatlar ko'proq kuzatilmoqda:

- turli g‘oya va manfaatlar kurashi tobora kuchayib, yolg‘onni rost, rostni yolg‘on, deb ko‘rsatishga urinishlar ko‘paymoqda;
- axborot-kommunikatsiya vositalari uzoqni ko‘zlaydigan manfaatlarga xizmat qilishga majbur etilmoqda;
- g‘arazli maqsadlar yo‘lida odamlar, millatlar bir-biriga qarshi qo‘yilmoqda;
- odamlarni hayotdan norozi bo‘lishga da’vat qilish uchun turli soxta ma’lumotlar tarqatilmoqda;
- o‘zgalarni pisand qilmay, kuchi etadigan davlatlarga qarshi kuch ishlatalish hollari ro‘y bermoqda;
- eski tuzum va mafkuralarni qo‘msashga bo‘lgan urinishlar tobora tarqalib bormoqda;
- odamlarni o‘zлari e’tiqod qiladigan dinidan boshqa dinga da’vat qilib, milliy birlikka putur etkazishga urinishlar kuchaymoqda;
- odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlar soni tobora ortib bormoqda;
- giyohvand moddalarning keng tarqalishi natijasida odamlar jismonan va ruhan majruh bo‘lib, insoniylik qiyofasini yo‘qotmoqda;
- tinchlik dini bo‘lgan muqaddas islom dinini niqob qilib, aslida esa, uni yo‘q qilishga bo‘lgan urinishlar ko‘payib bormoqda;
- oila deb atalgan muqaddas maskanga qarshi xurujlar kuchaymoqda;
- “ommaviy madaniyat”ning xurujlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yemirmoqda.

Ana shunday bir vaziyatda “internet bozoridan har kim o‘ziga kerakli narsani oladi”, deb tarbiyani o‘z holiga tashlab qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday vaziyatlarda odam o‘z shaxsiy mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy milliy qadriyatlariga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga bardosh berishi qiyin. Bunday xatarlarga qarshi kurash samarasini oshirish uchun, eng avvalo, ota-onalar farzandlari ustidan nazoratni kuchaytirishlari lozim. Buning uchun ota-onaning o‘zi sharqona odob-axloq doirasida farzandiga o‘rnak bo‘lishi yoshlarda to‘g‘ri axborot madaniyatining shakllanishida muhim zamin bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ota tarbiyasi, ota qattiqqo‘lligi juda zarur bo‘ladi. Oilada hukm suradigan sog‘lom ma’naviy muhit va sog‘lom turmush tarzi yoshlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan ichkilikbozlik, giyohvandlik, “ommaviy madaniyat”, turli jinoiy guruuhlar va diniy ekstremizm kabi salbiy illatlarning ta’siriga tushib qolishdan saqlaydi. Shu bois yoshlarning bo‘sht vaqtlarini unumli tashkil etish, ularni aqliy va jismoniy mehnat orqali tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar

mushtarakligi ruhida milliy g'ururini shakllantirish, oila, millat, Vatan oldidagi burch va ma'suliyatini oshirish har bir ota-onaning asosiy vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, ota-onalar muntazam ravishda farzandlarida ilm olish, kitob o'qishga muhabbat tuyg'usini uyg'otishi, ularning qunt bilan o'qishlari, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratib berishi, farzandiga ilm berayotgan o'qituvchilar bilan doimiy muloqotda bo'lib, o'g'il-qizlarining faoliyatini nazorat qilib turishlari zarur. Eng muhimi, ota-onalar farzandlarining kim bilan vaqt o'tkazayotgani yoki do'stlashayotganidan doimiy xabardor bo'lib borishi kerak.

Sportchi-o'quvchi ma'naviyati shakllanishidagi muhim vositalardan yana biri bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Ta'lim-tarbiya insonni, inson orqali butun bir jamiyatni o'zgartiradi, yuksaltiradi. Agar biz ta'lim-tarbiya tizimi orqali yoshlarimizda ma'naviy merosimizdan, milliy qadriyatlarimizdan, betakror Vatanimizdan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirsak, ularda har qanday axborotni milliy mentalitetimizga xos tanqidiy tahlil eta olish qobiliyati vujudga keladi. Bu qobiliyat asosida esa yoshlarda axborot madaniyati va ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitet shakllanadi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar asosida ham komil inson, barkamol avlod tarbiyasi yotadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqida aytilgan "Mana, bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida ma'naviyat sohasida qanday muammolar paydo bo'layotganini ko'ryapmiz. Bu nimaning oqibati? Bu avvalo ta'lim va tarbiyaning uyg'un holda olib borilmagani oqibati, desak, xato bo'lmaydi", degan xulosasi har bir pedagog va ota-onalar uchun dasturilamal bo'lmos'i kerak.

Hozirgi murakkab globallashuv sharoitida yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashda katta avlodning tarbiyaviy ta'siri ham niyoyatda muhim ahamiyatga ega. Chunki "ommaviy madaniyat"ning shiddat bilan tarqalishi, dunyo yoshlarining har xil yomon illatlarga mubtalo bo'layotganligi, ma'naviyatimizga yot bo'lgan turli guruh va oqimlarning o'smir yoshlar ongini zaharlab, o'zlariga og'dirib olishga harakat qilayotgani, bizga yaqin va olis mamlakatlarda yuz berayotgan qonli to'qnashuvlar katta avlod oldida yanada dolzarb vazifalar turganini ko'rsatadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining quyidagi fikrlari barchamizni sergak torttiradi: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning

bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin”.

Bugungi kunda ayrim yoshlar Vatan oldidagi o‘z mas’uliyatini u haqidagi quruq gaplar, shiorlarni bilishdan iborat deb tushunmoqda. Shubhasiz, biz Vatan haqida she’rni ham, shiorni ham, iqtibosni ham bilishimiz zarur. Lekin u etarli emas. Eng muhimi, biz yodlagan, biz bilgan, o‘rgangan bilimlarni Vatan va millat manfaati yo‘lida sarf qilishdir. Vatan haqida she’r yodlasak-da, uning mas’uliyatini sezmaslik ota-onha to‘g‘risida she’rni yodlagan holda ularning hurmatini joyiga qo‘ymaslik, ular oldidagi mas’uliyatni sezmaslik, ayrim hollarda esa, bunday muhtaram zotlarni g‘ariblar uyiga topshirish bilan tengdir. O‘rgangan, bilgan, yodlagan, anglagan bilimlarni Vatan yo‘lida sarf etish deganda har bir yigit-qiz o‘z manfaatini yurt manfaati bilan uyg‘un holda ko‘rishi va shunday munosabatda bo‘lishini tushunish mumkin.

Bugungi kunda axborot sohasida ham “qurollanish poygasi”ning yangi bosqichga ko‘tarilishi yuz bermoqda. Axborotlashgan xavf-xatarlar oldida eng tajribali mamlakatlar ham qiyin ahvolga tushib qolmoqda. Chunki oddiy bo‘lib tuyulgan mayda axborot xatarlari ham kishilarning dunyoqarashi o‘zgarishiga, asrlar davomida e’zozlanib kelingan milliy qadriyatlarga humretsiz bo‘lishiga olib kelmoqda. Buni ba’zi zamona viy yoshlarning hattiharakatida, o‘zini tutishida barchamiz ko‘rmoqdamiz. Shu sababli yoshlarimizni axborot xurujlari va ma’naviy tahdidlardan himoya qilish, vayronkor mafkuralarning asl basharasini fosh qilish, yuksak ma’naviyatlari komil insonlarni tarbiyalash masalasi davr talabiga aylangan. “Hozir ziyoilarimizning topib aytgan, nishonga tegadigan har bir so‘zi tashqi va ichki dushmanlarning jaholat to‘la boshlariga tekkan o‘qdek qimmatli. Shuning uchun endi mafkuraviy kurash o‘ziga xos va mos, ya’ni u kurash qoidalari asosida olib borilishi kerak”.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, yuksak ma’naviyatlari barkamol avlodni tarbiyalashda quyidagi masalalar echimiga alohida ahamiyat berilishi zarur, deb hisoblaymiz:

- milliy qadriyatlarimizni eng avval oila muhitida farzandlar ongiga singdirish, buning uchun esa ota-onalarning o‘rnak bo‘lishlariga erishish;
- sport maktablarida adabiyot, san’at, fan va madaniyat sohalarida ma’rifiy tadbirlar, tanlovlар, savol-javoblarni muntazam o‘tkazib borish;
- oila muhitida va sport maktablarida sportchi o‘quvchi-yoshlarning badiiy adabiyotlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish;
- boy ma’naviy merosimizni o‘zlashtirishda katta avlod vakillari ta’sirini faollashtirish;
- ota-on, trenerlar va jamoatchilik tomonidan yoshlarning internet tizimidagi muloqotlarini jiddiy nazoratga olish, ularni vayronkor g‘oyalarni targ‘ib etuvchi xorijiy saytlar ta’siridan himoya qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Vatanimizning kelajagi...” avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”.

#### **IV. Yosh sportchilar g‘oyaviy immunitetini shakllantirish masalalari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining 2016 yil 14 dekabrda qo‘shma majlisdagi nutqida quyidagilarni ta’kidladi: “Bugun zamonning o‘zi barchamizning oldimizga yangi va g‘oyat mas’uliyatli vazifalarni qo‘ymoqda. Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko‘z qorachig‘idek saqlash hamda mustahkamlashni o‘zimning ustuvor vazifam, deb hisoblayman. Jamiyatimizda hukm surayotgan o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e’tiqodga mansubligidan qat’i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta’minalash e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Ularning o‘rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g‘oyalarni tarqatishga O‘zbekistonda mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi. Dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojarov va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushiyor bo‘lishni talab etmoqda. **“Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart!”** degan hayotiy da’vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan. Hozirgi vaqtida mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning

kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga etkazishimiz zarur. Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘s sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.

Darhaqiqat, komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga etkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi yo‘q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum. Aslida insoniyat sivilizatsiyasining ma’no-mazmuni ham komillik, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iboratdir. Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi ustuvor ahamiyatga ega.

Yosh sportchilarda Vatanga sodiqlik, xalqimiz qadriyatlariga, o‘lmas boy ma’naviy merosiga muhabbat ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda axborotlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish malakalarini shakllantirish o‘ta muhim ishdir. Zero, axborot vositalarining ijtimoiy hayotdagi roli ortib borar ekan, ulardan foydalanishning turli ko‘rinishlari ham yuzaga kelmoqda. Dastlab axborot vositalari turli mintaqaga va hududlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, voqeа-hodisalar bilan jahon ommasini tanishtirishga xizmat qilgan bo‘lsa, endilikda ayrim oqim va siyosiy kuchlar ulardan mafkuraviy qurol sifatida foydalanishga urinmoqdalar. Binobarin, shaxs ongiga axborot (g‘oya) yordamida ta’sir etish, uni bo‘ysundirish, ma’lum izga solishda eng samarali yo‘l sanaladi. Ayni vaqtida turli oqim va guruhlarning mafkuraviy tajovuzi kuchayib borishi, Yer sharining turli

nuqtalarida turli mafkuraviy qarash va g‘oyaga ega kuchlar o‘rtasida kechayotgan kurashlar buning yaqqol dalilidir.

Xalqaro munosabatlar ko‘laming tobora kengayishi o‘zaro tenglik asosida hamkorlik qilish g‘oyasini ifoda etuvchi harakatlar bilan birga respublika hududiga mafkuraviy nuqtai nazardan buzg‘unchi g‘oyalarning ham kirib kelishiga imkoniyat yaratdi. Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an’ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o‘z ta’siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar ekan. Shu sababli har qanday jamiyat o‘zining rivojlanish va istiqbol yo‘lini belgilab beruvchi milliy g‘oyaga ega bo‘lishi zarur.

So‘nggi yillarda ijtimoiy mazmundagi ko‘plab adabiyotlarda mafkuraviy kurashlar, ularning mohiyati, mafkuraviy kurashlar jarayonida bunyodkor va buzg‘unchi g‘oyalarni ajratib olish, vayronkor g‘oyalarga qarshi keskin turish masalalariga oid qarashlar o‘z ifodasini topmoqda. Bu muammo falsafiy, pedagogik, psixologik hamda sotsiologik bahsmunozaralar uchun asosiy mavzu bo‘lib qolmoqda. Bu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov yoshlarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirish dolzarb masala ekanligiga e’tiborni qaratgan holda quyidagilarni ta’kidlaydi: “Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning g‘oyaviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ana shunda johil aqidaparastlikning «da’vati» ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi”.

Bu o‘rinda g‘oyaning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rnii anglab olinishi nihoyatda muhimdir. **G‘oya** (yunoncha “idea” – birinchi manzara, dastlabki obraz) – ob’ektiv borliq, mavjudlikning inson fikrida aks etish shakli. G‘oya har qanday jamiyatni sog‘lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o‘z muddaolariga ergashish uchun ma’naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo‘la olishi zarur. Shuningdek, g‘oyada olamni bilish va amaliy jihatdan o‘zgartirish maqsadlari, ularga erishish yo‘llari va vositalari haqida ma’lumotlar mujassamlangan, anglangan bo‘ladi.

Bolalar-o‘smlar sport maktablari o‘quvchilarida g‘oyaviy immunitetni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali kechishini ta’minlash, uning mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash, sport maktablarining

o‘quv va tarbiyaviy faoliyati negizida namoyon bo‘lувчи имкониятларни о‘рганиш, eng maqbul shakl, metod va vositalarni aniqlash, muayyan muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradi. Qolaversa, sport maktablarida sportchi o‘quvchilarida g‘oyaviy immunitetni shakllantirish yo‘lida olib borilayotgan pedagogik faoliyatning nazariy va amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi uchun sharoit yaratadi.

Bugun bu masalaning ijtimoiy-milliy dolzarbligi yanada oshmoqda. Diniy ekstremizm mafkurasiga, qo‘poruvchilik-terorchilikka qarshi kurashdagi asosiy vazifa – aholi o‘rtasida, ayniqsa, yoshlar bilan olib boriladigan targ‘ibot-tashviqot va tarbiyaviy ishlarni izchil, puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etish va ularning ta’sirchanligini keskin kuchaytirishni bugun boshimizdan kechirayotgan hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Xalqaro terrorchi kuchlar birlashib, bosh ko‘tarayotgan, o‘ta makkor va yovuz uslublarni qo‘llayotgan hozirgi murakkab vaziyatda tajovuz va terrorchilikning mafkuraviy zaminini yo‘qtish va, avvalo, yoshlarimizning qalbi va ongi, sog‘lom tafakkuri uchun kurashni taqozo etmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida trener-murabbiyning ishiga ikki barobar ko‘proq talab va mas’uliyat yuklangani ham rost. Birgina Internet global tarmoqlarida yuz minglab urushlar va diniy ekstremistik g‘oyalarning, minglab “ommaviy madaniyat” unsurlarining hamda axloqsizlik va tubanlik singari illatlarning ko‘plab tarqatilayotganligining o‘ziyoq trener globallashuv davri bolasiga qanday ta’lim berib, qanday tarbiya berishi kerak ekanligini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Globallashuv davrida ta’lim va tarbiya ishiga faqat trener-murabbiylar olib borayotgan ishning o‘zi etarli emas. Bu jabbada ota-on, mahalla, turli davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligi yaxshi samara beradi. Ota-onalarning o‘zları globallashuvning salbiy ta’sirlaridan ogohmi yoki yo‘qmi, degan masala ham bor. Ayrim ota-onalarning o‘zları globallashuvning “ommaviy madaniyat”ning ta’siriga tushib qolishmaganmi? Xo‘s, mana shunday oilalar o‘z farzandlarini qaysi ruhda tarbiyalaydi? Agar shunday bo‘lsa, ota-on, bolasini qanday tarbiyalaydi? Bilishimizcha, bunday ota-onalarning o‘zlarini tarbiyalash kerak. Yoki ko‘pgina oilalarda bola tarbiyasi faqat onalarning zimmasiga yuklab qo‘yilgan. Aksincha, globallashuv davrida ham ota, ham onaning bola tarbiyasidagi yakdil hamkorligi samara keltirishi mumkin. Yana bir muhim masala ta’lim muassasalarida o‘quvchilar uzog‘i bilan sakkiz soat davomida ta’lim-tarbiya olishadi yoki turli to‘garaklar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etishadi. Bolalarimizning qolgan o‘n olti soat vaqtłari uyda, ko‘cha-kuyda, jamoat

joylarida, internet kafelar va turli ko‘ngilochar joylarda hamda oilada o‘tadi. Muammo shundaki, bolalarimizning maktab ta’limidan keyingi besh-olti soatlik vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etishimiz lozim. To‘g‘ri, davlatimiz tomonidan ayniqsa, keyingi yillarda bolalarimizning jismonan sog‘lom va ma’nан etuk, ya’ni komil inson bo‘lib o‘sishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Masalan, mamlakatimizning ko‘pgina shahar va qishloqlarida tashkil etilgan bolalar-o‘smirlar sport maktablari, futbol, sport maydonchalari faoliyati tahsinga sazovor. Ko‘pgina bolalarimizning bo‘sh vaqtvari mana shu sport maktablari hamda futbol va sport maydonchalarida mazmunli o‘tmoqda, bu yaxshi, albatta. Mana shu yaxshi an’anani qishloq joylarida ko‘paytirish lozim. Ammo mavjud shart-sharoitlardan unumli foydalanish barcha joylarda ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan. Masalan, mahalla fuqarolar yig‘inlari faollari bolalarimizning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etishda bosh-qosh bo‘lishlari lozim.

Globallashuv davrida tahdidlarning turlari ham ko‘paydi va ommalashib bormoqda. Bugun sportchi yoshlari ma’naviyatiga tahdid solayotgan uyali telefon, Internet, audio-video disk singari vositalar ham katta havfga aylanib bormoqda. Ayniqsa, mobil telefonlar har bir fuqaroning, jumladan sportchi-yoshlarning eng asosiy aloqa vositasiga aylanib ulgurdi. Ularning mobil telefonlariga yozib olayotgan aksariyat “qiziqarli” ma’lumotlar, asosan, internetdan olinmoqda. Bolalarimiz ta’limi va tarbiyasida mavjud bu nuqson va kamchiliklarni oldini olish uchun O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlanganidek, ta’lim-tarbiya muassasalari, ota-onalar, mahalla, yoshlari, xotin-qizlar jamoatchiligi, davlat va nodavlat tashkilotlarining samarali hamkorligigina bunday noxush holatlarning oldini olish va bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi fikrlar asosida sportchi-o‘quvchilarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirish yo‘lida bir qator pedagogik omillar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- oila, mahalla, uzlusiz ta’lim tizimi, shuningdek, davlat va jamiyat imkoniyatlarini birlashtirish, ulardan samarali foydalanish;
- yosh sportchilar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy hamda ijtimoiy-g‘oyaviy tarbiyani samarali, ta’sirchan shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratish;
- yosh sportchilarni ijtimoiy-foydali mehnatga faol jalb etish, ularda mehnatga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirish, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash, ularning hayotiy maqsadga ega bo‘lishlariga erishish;

- yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga yanada ko‘proq jalb etish asosida ularda kuchli iroda va mustahkam xarakterni tarbiyalash;
- yosh sportchilarning estetik tarbiyasini samarali, to‘g‘ri tashkil etish asosida ular o‘rtasida haqiqiy san‘at asarlarining targ‘ib etilishiga erishish, ularda kuchli estetik didni tarbiyalash;
- yosh sportchilarning bo‘s sh vaqtlaridan unumli foydalanim, ular o‘rtasida sport musobaqalari va bayramlarini muntazam tashkil etish;
- yosh sportchilar ongiga fidoiylikni, kuchli e’tiqodni, shuningdek, Vatani va xalqiga bo‘lgan sadoqatni qaror toptirish.

## **V. O‘quvchi-yoshlarni ogohlik va hushyorlik ruhida tarbiyalash**

Bugungi kunda ogohlik davr talabiga aylanmoqda. Chunki yon-atrofimizda va bizdan ancha olis mamlakatlarda sodir bo‘layotgan din niqobi ostidagi xun rezliklar bizni yanada hushyorroq bo‘lishga, betakror Vatanimizdagi tinchlik va barqarorlikni ko‘z qorachig‘idek asrashga undamoqda. Zero, ogohlik va hushyorlik bor joydangina turli balo-ofatlar chekinadi. Ogohlik yo‘qolgan joyda esa barcha pushaymon va kulfatlarning sababchisi bo‘lgan loqaydlik hukm suradi. Loqaydlikka berilgan millat va jamiyat o‘zining himoya qobiliyatini yo‘qotadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Himoya degani nima? Himoya degani – avvalo, ogoh bo‘lish degani. Bema’ni ishlarni, qabih niyatlarni sezdingmi, yovuz kuchlarning xattiharakatini, basharasini ko‘rdingmi, beparvo bo‘Ima! Nimaga deganda, ertaga shular tufayli sening boshingga kulfat tushishi mumkin.”

Ogohlik, Ogohlik, yana Ogohlik! Bugungi g‘oyat tahlikali, ham iqtisodiy, ham ma’naviy inqirozlar kuchayib borayotgan, yoshlar ongini yolg‘on va soxta axborot xurujlari, tajovuzlari o‘rgimchak to‘ridek egallayotgan, ularning qalbiga din niqobi ostidagi zararli ta’sirlar ortib borayotgan xatarli zamonda barchamizdan uyg‘oqlik, xushyorlik talab qilinishi alohida ta’kidlanadi.

Internetdagи diniy ekstremizm, terrorizm, axloqsizlikni targ‘ib qilayotgan “Odnoklassniki” saytini olaylik. Bugungi kunda mazkur saytga murojaat qilayotganlar soni 1,5 milliard kishini tashkil etmoqda. Bu bir sekundda 150 ming kishi degani. Saytga a’zo bo‘lganlar 205 million nafarni tashkil etsa, ularning 8 millioni o‘zbekistonlik bo‘lib, aksariyati yoshlardir. O‘nlab saytlar yolg‘on va’dalar bilan yoshlarni tuzoqqa ilintirishga zo‘r bermoqda. O‘z qurbanini axtarib “ov”ga chiqqan bu yovuz kuchlardan

nafaqat yoshlar, balki ota-onalar, jamoatchilikning hushyor va ogohligi kechiktirib bo‘lmaydigan hayot-mamot masalasidir. Bunday kuchlarning yoshlarimizni aldab o‘z qarmog‘iga ilintirishlariga hech qanday imkoniyat bermasligimiz kerak.

Aziz tarbiyachilar, ma’naviyat qachon engilmas kuchga aylanadi? Qachonki, sizning iste’dodingiz va shijoatingiz, orzu-maqsadlaringiz jasorat, bunyodkorlik va matonat namunasiga aylansa, buni hech qachon unutmang!

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning yoshlarga qarata aytilgan ushbu da’vagini qalbingizning tub-tubiga yozib qo‘ying va hayotda ularga amal qilib yashang: “**Ey bolam, sening Vataning bitta – barchamizga aziz, betakror mana shu O‘zbekiston. Ota-bobolarining xoki shu erda yetibdi. Shu muqaddas zamin seni dunyoga keltirgan, sen uni obod etishing, himoya qilishing shart.** Nafaqat sening o‘z hayoting, balki senga umid ko‘zini tikib turgan ota-onang, opa-singillaring, yosh go‘daklar, nuroniq qariyalarimizning hayoti ham ana shu burchingni nechog‘liq ado etishingga bog‘liq”.

Yaqin qo‘shnilarimiz bo‘lgan ayrim davlatlarda yoshlarning 50-60 foizi savodsiz. Yer yuzida 130 milliondan ortiq o‘smir yigit-qizlar boshlang‘ich ta’lim olish huquqididan mahrum.

O‘zbekistonda esa farzandlarimiz jahoning kamdan-kam mamlakatida uchraydigan 11 yillik bepul ta’limni 7 tilda olishmoqda. Xalqaro sport championatlari, fan olimpiadalarida O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘tarayotgan yoshlarimizning aksariyati qizlarimiz ekani faxlanarlidir.

Bugungi kunda 2 milliondan oshiq o‘quvchilar, shu jumladan, 1 milliondan ortiq qiz bolalar sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug‘ullanmoqda. So‘nggi o‘n yilda 14 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘rtacha vazn ko‘rsatkichi 43 kilogrammdan 47 kilogrammga, qizlar o‘rtasida esa 44 kilogrammdan 48 kilogrammga ortGANI kuzatilmoqda. Bolalarning bo‘yi esa o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘rtacha 3 santimetrga, qiz bolalar o‘rtasida esa 2,9 santimetrga o‘sgani aniqlangan. Ta’kidlash joizki, hozirgi vaqtida 92 foiz o‘g‘il-qizlarimizning vazni va bo‘yiga doir ko‘rsatkichlari Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti standartlariga to‘la mos keladi.

Yurtimizda tug‘ilgan, endi 5 yoshga to‘lgan bolalar ham “Men – O‘zbekiston fuqarosiman!” deb, faxrlanib, g‘ururlanib gapiradi. Kimki mamlakatimizga kelsa, bu haqiqatning tasdig‘ini har qadamda ko‘rishi mumkin.

Darhaqiqat, biz championlarimiz, iqtidorli o‘g‘il-qizlarimiz haqida ko‘p gapiramiz. Maktabgacha tarbiya yoshidagi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarimizning chaqnagan ko‘zлari, mardona so‘zlariga ko‘pam e’tibor beravermaymiz. “Hali bola-ku”, deymiz. Vaholanki, ularning murg‘ak ma’naviyatida porlagan durdona fikr, orzular bebafo. Bu orzular ularning ertaga olg‘a tashlanadigan qadamlariga aylanadi. Keling, bu haqda so‘zni o‘z umrini bolalarimizga bag‘ishlagan surxondaryolik oddiy o‘qituvchi, **Zulkumor Xidirovaga** beraylik: “Men o‘qituvchiman. Shuning uchun o‘quvchilarimning ma’naviyatiga, aytayotgan fikrlariga alohida e’tibor qilaman. Qarab turib, o‘zimga o‘zim, “Mustaqillik bolalarimizga mustaqil fikrlashni o‘rgatdi. Ular aytayotgan gaplarga biz kattalar lol qolayapmiz. Yaqinda 4-sinfda “Mustaqillik soati”ni o‘tdim. O‘quvchilarimga O‘zbekiston Gerbi haqida aytib berdim. Keyin “Qani bolalar, aytinlar-chi, gerbimiz nimaning timsoli?”, deb so‘radim. O‘quvchim Husniddin baland ovozda: **“Ustoz, bu – O‘zbekistonning quyoshi”**, dedi. Rosti, nima deyishni bilmay qoldim.

Oila davrasida o‘tiribmiz. 3 yoshli nevaram Dilshoddan: “Katta bo‘lsang kim bo‘lasan, bolam?”, deb so‘radim. U qo‘llarini chekkasiga qo‘yib, **“O‘zbekiston Respublikasiga xizmat qilaman”** desa bo‘ladimi! Buni eshitib, bir uy to‘la odam bir lahma qotib qoldik. Keyin o‘zimizga kelib, ... qarsak chalib yubordik. Ko‘zlarimizga yosh keldi. Shu murg‘ak bolaning qalbiga Allohim Vataniga daxldorlik tuyg‘usini solganidan hayratga tushdik”.

Haqiqatan ham, ogohlilik – xavfsizlikning eng muhim sharti bo‘lib, ogohliksiz xavfsizlik bo‘lmaydi. Bugungi globallashuv jarayonlari kuchaygan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega bo‘lib borayotgan, diniy ekstremizm, terrorizm, aqidaparastlik, “ommaviy madaniyat” kabi buzg‘unchi tahdidlar butun insoniyatga xavf solayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asrida Vatan faqat qurol bilan emas, balki har bir odamning o‘z atrofidagi voqeа-hodisalarga o‘ta hushyor va sinchkov munosabati hamda yosh avlod qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hayotiy o‘gitlar orqali chuqur singdirishi bilan ham himoya qilinadi. Chunki butun dunyoga keng tarqalib borayotgan, masofa, chegara bilmaydigan mafkuraviy urushning eng xavfli tomoni shundaki, bunda nishonga olingen mamlakatning yoshlari bosib kelayotgan yovning askarlariga aylantiriladi.

Bugungi kunda o‘zga mamlakatlarni zabit etish uchun qurolli hujum qilib, ularning aholisini jismonan yo‘q qilish shart emas. Zabit etish

mo‘ljallangan hudud aholisining qalbi va ongi dushmanga foyda keltiradigan yo‘nalishga o‘zgartirilsa bo‘ldi, keyin shu aholi ko‘magida har qanday tabiiy boyliklarga egalik qilish mumkin. Shu sababli ham bugungi kunda buzg‘unchi kuchlar o‘zlarining g‘arazli mafkuralarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali butun Yer yuziga tarqatmoqda. Ular turli tuhmat va bo‘htonlar vositasida insonlarning, ayniqsa, tajribasiz yoshlarning ongini zaharlab, o‘zlariga qaram qilishga urinmoqda. Ana shunday vayronkor mafkuralardan bo‘lgan xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmning kundan-kunga kuchayib borayotgan xurujlari natijasida dunyoda minglab begunoh insonlar, jumladan, ayollar va qariyalar, eng dahshatlisi yosh bolalar qurban bo‘lmoqda. Buni dinni niqob qilib olgan terrorchilarning Iraq va Suriyada amalga oshirgan vahshiyliklaridan ham bilsa bo‘ladi. Bir paytlar insoniyat sivilizatsiyasining beshiklaridan bo‘lgan Iraq va Suriya bugun vayronaga aylanib, u yerlarda yashovchi millionlab tinch aholi jon saqlash maqsadida o‘z uy-joylarini tashlab ketishga majbur bo‘lmoqda.

Xo‘sish, bir paytlar millionlab sayyoohlarni o‘ziga tortgan Bag‘dod va Damashq kabi qadimiy shaharlarga bugun nima uchun turistlar qadam bosmaydi? Nima uchun diniy ekstremist hamda terroristlar Iraq va Suriyada o‘zlariga in qurib oldi? Buning eng asosiy sababi, arab xalqlarining loqaydlik va beparvo-likka berilib, xavf-xatarning o‘z vaqtida oldini olmaganliklari bo‘ldi. Agar ular loqayd bo‘lмаганларда, g‘aflatda qolmasdan hushyor va ogoh bo‘lib, xavf-xatarni bartaraf etish uchun birgalikda kurashganlarida minglab oilalar urush azoblarini tortmagan va begunoh insonlarning qoni to‘kilmagan bo‘lardi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi inson qalbi va ongini egallah uchun ma’naviy tahdidlar kuchaygan, aqidaparastlik, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmnинг xurujlari avj olgan tahlikali zamonda yurtimizdagи tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash, yoshlarmizni turli buzg‘unchi mafkuraviy xurujlar ta’siridan himoya qilish eng dolzarb masalaga aylangan. Shu sababli ham o‘zini shu Vatan farzandi deb hisoblaydigan har bir inson mayjud xavflarning mohiyatini chuqur anglab, ulardan ogoh bo‘lib, o‘zida mafkuraviy immunitetni, “Fikrga qarshi – fikr, g‘oyaga qarshi – g‘oya, jaholatga qarshi – ma‘rifat” bilan kurashishni tarbiyalab borishi shart. Chunki buzg‘unchi kuchlar insonlarning diniy his-tuyg‘ularidan o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bunga tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, millionlab odamlarning o‘limiga sabab bo‘lgan Hitler boshchiligidagi fashistlar to‘dasi

ham islom dinidan niqob sifatida foydalanishga uringan. Gitler hokimiyat tepasiga kelishi bilan xalifalikni tiklash g‘oyasini ko‘tarib, Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Hindiston, Iroq, Suriya, Misr, Saudiya Arabistoni, Falastin, Jazoir kabi mamlakatlarga mafkuraviy hujumni kuchaytirib, u yerlarga ko‘plab da‘vatchilar yuborgan. Da‘vatchilar mahalliy aholi orasidan irodasi bo‘sh, tajribasiz yoshlarni pul, yolg‘on va‘dalar evaziga sotib olib, ularga otish, portlatish va mish-mish tarqatish usullarini o‘rgatishgan. Shuningdek, gitlerchilar o‘z radiostansiyalari orqali, hatto jang maydonlariga samolyotdan varaqalar tashlab, musulmon askarlarni o‘zlariga qo‘shilishga va birgalikda islom davlati qurishga chaqirgan. Mana shu tarixiy misoldan ham aqidaparastlik, diniy ekstremizm va terrorizmning insoniyat uchun qanchalik xavfli tahdid ekanligini anglash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida: “Aqidaparastlik qanday qiyofada bo‘lishidan qat‘i nazar – bu diniy aqidaparastlik bo‘ladimi yoki kommunistik aqidaparastlik bo‘ladimi – o‘z mafkurasiga, hayot qarashlariga mos kelmaydigan hamma narsani inkor etadi va “kimki biz bilan emas ekan, demak, u bizga qarshi” degan tamoyil asosida ish ko‘radi”, deb ta‘kidlagan edilar. Haqiqatan ham aqidaparastlar o‘zları ishongan qoida va tartiblar-ni ko‘r-ko‘rona qo‘llashga urinib, boshqalarga nisbatan shafqatsiz munosabat-da bo‘ladilar. Faqat o‘zini haq deb bilish, o‘z aqidasidan boshqa haqiqatni tan olmaslikka asoslangan manmanlik esa diniy ekstremizmni keltirib chiqaradi.

Diniy ekstremizm – ekstremizmning din niqobi ostida namoyon bo‘lish shakli bo‘lib, u o‘ta xavfli chora-tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi vayronkor g‘oyani anglatadi. Diniy ekstremistlar qaerda faoliyat ko‘rsatmasin, asosiy maqsadi hokimiyatni qo‘lga olish bo‘lib, bunga o‘zaro nizolar, qon to‘kish va zo‘rlik bilan erishishni ko‘zlaydi. Bu yo‘lda ular eng jirkanch usullarni, jumladan terrorni qo‘llashdan ham tap tortmaydi. Odamlarni garovga olish, o‘ldirish, portlatish, qo‘rkitish va dahshatga solish orqali o‘z hukmini o‘tkazishga urinish terrorchilikka xos bo‘lib, mamlakat tinchligi va taraqqiyotiga katta xavf soladi.

Bugungi kunda diniy ekstremistlar va terrorchilar internetdagи o‘zlariga tegishli saytlarida odamlarni aldab o‘z tomoniga og‘dirib olish va keng aholi qatlami tomonidan qo‘llab-quvvatlanishga erishish maqsadida quyidagi targ‘ibot usullaridan bor kuchi bilan foydalamoqda:

— ular o‘zlarini yagona to‘g‘ri yo‘lda yuruvchilar deb hisoblab, o‘zlariga er-gashmaganlarni kofir sanashadi;

- imon keltirmagan yoki boshqa dinga e’tiqod qiladigan har qanday kishini dushman deb aytishadi;
- yer yuzidaadolat o’rnatishning yagona yo‘li – islomiy davlat qurish va shu maqsadda “hijrat” va “jihad” qilish g‘oyalarini ilgari surishadi;
- o‘zlarining jinoyatchi to‘daboshilaridan boshqa olimlarni qoralab, ular-ni haqoratlashadi va yomonotliq qilishadi;
- davlat hokimiyatiga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg‘otish va mavjud kamchiliklarni bo‘rttirib ko‘rsatish orqali odamlarni vahimaga solishadi;
- xalq bilan go‘yoki yaqinligini bildirish maqsadida ularning qiyinchiligi va tashvishiga o‘zlarini “sherik” qilib ko‘rsatishadi, aslida esa ularning diniy tuyg‘ularidan ustalik bilan foydalanishadi;
- ixtilof chiqaradigan masalalarни o‘z sahifalari orqali yoritib, odamlarda o‘z qarashlari to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishga urinishadi.

Hozirgi kunda ba’zi odamlar esa ma’lumotlarni saralamasdan, duch kelgan axborotni to‘g‘ri deb qabul qilishmoqda. Natijada o‘zları va atrofdagilarning ongini zaharlashmoqda. Aslida esa, har qanday xabar ham to‘g‘ri va xolis bo‘lavermaydi. Shuning uchun inson o‘zida zararsiz axborotlarni qabul qilish, zararli va xavfli ma’lumotlarni esa qabul qilmaslik ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim. Shu maqsadda quyidagi tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

- yosh sportchilarda internetdagи xabar va ma’lumotlarni tahlil eta olish malakasi-ni hosil qilish zarur;
- yosh sportchilarga internetdagи qanday ma’lumotni olish keragu, qaysilarini qabul qilmaslik lozimligini tushuntirish;
- yosh sportchilarning internet tarmog‘iga qiziqishlarini muntazam o‘rganish va bu borada kerakli maslahatlar berib borish;
- yosh sportchilarni milliy ma’naviyatga, odob-axloqqa salbiy ta’sir etuvchi ma’lumotlardan himoya qilish;
- internet xurujlariga qarshi muntazam targ‘ibot ishlarini olib borish;
- diniy-ekstremistik saytlarga kirmaslik. (Bunday saytlarning alomatlari: “hijrat” va “jihad”ga da‘vat qilish, dunyoviy davlat va tuzumlarni kofirlikda ayblash, Davlat mustaqilligi, Yangi yil, Navro‘z, 8 mart kabi bayramlarni, tug‘ilgan kunni nishonlashni harom deb e’lon qilish, Afg‘oniston, Iroq va Suriya kabi mamlakatlardagi jangarilarni maqtash);
- internet saytlarida diniy mavzuda ilmoqli, nozik savollar berib, suhbatga chorlayotgan shaxslar bilan muloqotdan tiyilish, dunyoviy jamiyatni

tanqid qilib, diniy turmush tarzini da'vat qilayotgan shaxslar bilan umu-man aloqa qilmaslik;

– elektron pochta orqali noma'lum shaxslardan kelgan diniy mazmundagi da'vat va tanishuv haqidagi takliflarga javob bermaslik, yuborilgan elektron materiallarni yuklab olmaslik;

– mobil qo'l telefonlariga mutaassiblik ruhidagi qo'shiqlar, ma'ruzalar, suratlar, videoroliklar yuklab olmaslik va tarqatmaslik;

– noqonuniy tarzda chop etilgan yoki tayyorlangan diniy mazmundagi adabiyot, disk va mobil telefonlardagi materiallardan foydalanmaslik va olib yurmaslik;

– diniy mavzuda qiziqtirayotgan ma'lumotlarni faqat "uz" domenida rasmiy faoliyat olib borayotgan davlat va diniy tashkilotlar saytlaridan olish;

– yosh sportchilar qalbi va ongida sog'lom turmush tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish;

– mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash;

– yosh sportchilar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, el-yurt sha'nini ardoqlash kabi ulug'ver fazilatlarni kamol toptirishda «Oila-mahalla-ta'lim muassasasi» hamkorligini mustahkamlash;

– yosh sporchilarda diniy bag'rikenglik, boshqa din vakillariga hurmat, millatlararo hamjihatlik, do'stlik tuyg'ularini shakllantirish;

– yosh sportchilarni etarli darajada axborot bilan ta'minlash.

Xullas, diniy ekstremizm va terrorizm bilan kurashda, asosan huquqtartibot organlariga suyanish, faqat jazo choralarini qo'llash orqali unga barham berishga intilish mazkur salbiy hodisaning oqibati bilangina kurashish deganidir. Bunday yo'ldan borilsa, diniy ekstremizm va terrorizmni oziqlantirib turgan "ildiz"lar zararlanmay qolaveradi. Shuning uchun bunday manfur kuchlarning kirdikorlarini fosh etishga har bir kishi o'z hissasini qo'shishi lozim. Bugungi murakkab va tahlikali zamon trenerlar va sportchi yoshlardan loqaydlik va beparvolik kayfiyatlaridan butunlay xalos bo'lishni, doimo ogoh va hushyor bo'lib yashashni, betakror vatanimizdagi tinchlik va barqarorlikni ko'z qorachig'iday asrashni kun tartibidagi eng dolzarb masala sifatida oldimizga qo'ymoqda.

## **VI. Globallashuv davri ta'lim - tarbiyasida trener -o'qituvchilar mas'uliyati**

Mustaqillik yillari O'zbekiston tarixida misli ko'rilmagan yangilanishlar, o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirildi. Jamiyat va davlat

hayotining barcha sohalarida erishilayotgan ulkan natijalar Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida zahmatkash xalqimizning fidokorona mehnatlari evaziga qo‘lga kiritilmoqda. Ana shu yangilanishlar, islohotlar va tub o‘zgarishlarning zamirida shubhasiz xalqimizning dunyoqarashi o‘sganligini asosiy omillardan biri deb aytish mumkin. Dunyoqarash esa o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, o‘smaydi. Uning shakllanishida ta’lim-tarbiya sohasining jonkuyar fidoiylari muallimu murabbiylarning mas’uliyatli, mashaqqatli mehnati ham bor. Ularning zimmasiga millat bolalariga ta’lim berish va tarbiyalashdek mas’uliyatli, zalvorli vazifa yuklatilgan. Ayniqsa, biz yashayotgan hozirgi globallashuv davrida muallimu murabbiyning ishiga ikki barobar ko‘proq talab va mas’uliyat yuklangani ham rost. Haqiqatan ham insoniyat yashagan barcha davrlarga nisbatan hozirgi tahlikali davr muallimu murabbiylarning tarbiya sohasidagi ishiga jiddiy zarar etkazmoqda. Axir bиргина internet global tarmoqlarida yuz minglab urushlar va diniy ekstremistik g‘oyalarning, minglab “ommaviy madaniyat” unsurlarining hamda axloqsizlik va tubanlik singari illatlarning ko‘plab tarqatilayotganligining o‘ziyoq muallim globallashuv davri bolasiga qanday ta’lim berib, qanday tarbiya berish kerak ekanligini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Dunyoda internetdan boshqa vositalar, xususan, ommaviy axborot vositalarida, ya’ni minglab teleradiokanallar, o‘n minglab gazeta va jurnallar sahifalarida ham har kuni odamlar va ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarning ma’naviyatiga umuman teskari tushuncha va axborotlar targ‘ib tashviq etilmoqda. Bundan tashqari, dunyo olimlarining e’tirofiga ko‘ra, barcha insonlar va ota-onalar beozorgina deb o‘ylashayotgan global tarmoqlar va kompyuterlarda joylashtirilgan hamma o‘yinlarning qariyb yarmi shafqatsizlik va zo‘ravonlik g‘oyalarini targ‘ib etmoqda. Internet global tarmoqlarida yuz mingga yaqin turli diniy ekstremistik saytlar, to‘qqiz mingdan ortiq kishini o‘zini-o‘zi halok etishga da‘vat etadigan saytlar, to‘rt mingga yaqin fahsh, pornografiya saytlarining mavjudligi bugungi davr qanday tahlikali davr ekanligidan dalolatdir. Internet tarmoqlaridan bugungi kunda dunyoda qariyb 1,5 milliard odamlar uzlusiz foydalanishmoqda. O‘zbekistonliklar ham bu jarayonlardan chetda qolayotgani yo‘q. Mamlakatimizda o‘n besh million aholi bevosita internetdan foydalanishmoqda. Shu o‘n million aholining sakkiz millioni yoshlar, shu yoshlarning aksariyat ko‘pchilligi “Odnoklassniki” saytlaridan foydalanishmoqda. Ming afsuski, “Odnoklassniki” ham shaffof yoki beg‘uborgina emas, uning tarmoqlarida ham odamlar va ayniqsa, o‘quvchi-

yoshlarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan diniy ekstremizm, terrorizm, axloqsizlik, giyohvandlik singari g'oyalarni targ'ib etayotgan minglab tahdidlar bor.

Xo'sh, shunday bir davrda yashayotgan ekanmiz, trener-o'qituvchi millat bolasiga qanday ta'lim berib, uni qanday tarbiyalashi kerak? Globallashuv davrida ta'lim va tarbiya ishiga faqat muallimu murabbiylar olib borayotgan ishning o'zi etarli emas. Bu jahhada ota-onal, mahalla, turli davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligi yaxshi samara beradi. Ammo masalaning boshqa bir jihatni ham borki, unga alohida e'tibor bermoq lozim. Gap ota-onalarning o'zlarini globallashuvning salbiy ta'sirlaridan ogohmi yoki yo'qmi, degan masala xususida bormoqda. Ayrim oilalarda ota-onalarning o'zlarini globallashuvning "farzandi" bo'lgan "ommaviy madaniyat"ning ta'siriga allaqachon tushib ulgurishgan.

Xo'sh, mana shunday oilalar o'z farzandlarini qaysi ruhda tarbiyalaydi? Ota-onal o'zi tarbiyalanmagan bo'lsa, bolasini qanday tarbiyalaydi? Bilishimizcha, bunday ota onalarni, avvalambor, ularning o'zlarini tarbiyalash kerak. Yoki ko'pgina oilalarda bola tarbiyasi faqat onalarning zimmasiga yuklab qo'yilgan. Aksincha, globallashuv davrida ham ota, ham onaning bola tarbiyasidagi yakdil hamkorligi samara keltirishi mumkin. Yana bir muhim masala, ta'lim muassasalarida bolalarimiz uzog'i bilan sakkiz soat davomida ta'lim-tarbiya olishadi yoki turli to'garaklar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etishadi. Bolalarimizning qolgan o'n olti soat vaqtleri uyda, ko'cha-kuyda, jamoat joylarida, internet- kafelar va turli ko'ngilochar joylarda hamda oilada o'tadi. Muammo shundaki, bolalarimizning maktab ta'limidan keyingi besh-olti soatlik vaqtlarini to'g'ri tashkil etishimiz lozim.

To'g'ri, davlatimiz tomonidan ayniqsa, keyingi yillarda bolalarimizning jismonan sog'lom va ma'nani etuk, ya'ni, komil inson bo'lib o'sishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Masalan, mamlakatimizning ko'pgina shahar va qishloqlarida tashkil etilgan futbol, sport maydonchalarini faoliyati tahsinga sazovor. Ko'pgina bolalarimizning bo'sh vaqtleri mana shu futbol va sport maydonchalarida mazmunli o'tmoqda, bu yaxshi, albatta. Mana shu yaxshi an'anani qishloq joylarida ko'paytirish lozim. Ammo mavjud shart-sharoitlardan unumli foydalanish barcha joylarda ham to'g'ri yo'lda qo'yilmagan. Masalan, mahalla fuqarolar yig'inlari faollari bolalarimizning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishda bosh-qosh bo'lishlari lozim.

Globallashuv davrida tahdidlarning turlari ham ko‘paydi, tezlashdi va ommalashib bormoqda. Ularning quyidagi turlarini sanab o‘tish mumkin:

- Diniy ekstremizm.
- Xalqaro terrorizm.
- Giyohvandlik.
- “Ommaviy madaniyat”.
- “Kosmopolitizm” (“Dunyo fuqarosi” yoki “Vatansizlik” g‘oyasi).
- Ludomaniya” (kompyuter o‘yinlari kasalligi yoki “Asr kasalligi”).
- Missionerlik, prozelitizm.
- Nigilizm (urf-odat, an’ana va qadriyatlarga bepisand munosabatda bo‘lish, inkor etish).
- Zo‘ravonlik (fashizm, neofashizm, shovinizm).
- Egotsentrizm, individualizm.
- OITS.
- Starizm ( yulduzlarga ko‘r-ko‘rona taqlid).
- Vandalizm (madaniy va moddiy yodgorliklarni vayron qilish).
- Axloqsizlik (fohishabozlik, behayolik, bir jinsli nikohlar).
- Xeppining (vahshiyona ko‘ngil ochishlar).

Bulardan tashqari, bugun sportchi-yoshlar ma’naviyatiga tahdid solayotgan uyali telefon, internet, audio-video disk singari vositalar ham katta havfga aylanib bormoqda. Ayniqsa, mobil telefonlar har bir fuqaroning jumladan, o‘quvchi-yoshlarning eng asosiy aloqa vositasiga aylanib ulgurdi. Ammo ming afsuski, o‘quvchi-yoshlar uchun mobil telefonlar faqat aloqa vositasigina emas, balki turli yot g‘oya va mafkuralarning yozib olinayotgan manbalariga va tarqatish quroliga ham aylanib bormoqda. Ularning mobil telefonlariga yozib olayotgan aksariyat “qiziqarli” ma’lumotlar asosani, internetdan olinmoqda. Joylardagi internet kafelar, Paynet elektron to‘lov shohobchalarining ayrim “jonkuyar” targ‘ibotchilari o‘quvchi-yoshlarning mobil telefonlariga bunday ma’lumotlarni ko‘chirib berishga katta hissa qo‘shmoqdalar. Xo‘sh, bolalarimiz ta’lim va tarbiyasida mavjud bu nuqson va kamchiliklarni oldini olish, bartaraf etish mumkinmi? Ha, mumkin. Ta’lim - tarbiya muassasalari, ota-onalar, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar jamoatchiligi, davlat va nodavlat tashkilotlarining samarali hamkorligigina bunday noxush holatlarning oldini olish va bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

## **Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqlopg‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoaldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017. 488 b (.pdf 214 Mb).
2. Mirziyoyev, Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017, 592 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি ma’ruza. “ Xalq so‘zi”, 2016 yil, 8 dekabr.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.” Xalq so‘zi”, 2016 yil 15 dekabr.
5. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy
6. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk keljakka ishonchdir “Fidokor” gaz. muxbir savollariga javoblar. Toshkent “O‘zbekiston”, 2000. 14-bet.
7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. 44-45-betlar . T. “O‘zbekiston” NMIU, 2015 y.
8. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2000. 490-bet.
9. Karimov I. A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T. 13. – Toshkent “O‘zbekiston”, 2005. 194-bet.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so‘zlagan nutqi. “Xalq so‘zi”, 2013 yil, 19 dekabr.
10. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008. 4-bet.
11. Jo‘rayev N. Mafkuraviy immunitet. Ma’ruza matni. T., «Ma’naviyat», 2000. 16 b.

11. Zakurlayev A. G‘oyalar kurashi. T., “Movarounnahr”, 2000. 64 b.
12. Ibrohimov A., Sultanov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. T., «O‘zbekiston» 1996.
13. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T., « Sharq», 1998. 240 b.
14. Islomov Z., Is’hoqov B., Yusupov O., Muhammadiyev A., Munavvarov S. “Bunyodkor g‘oyalar” T., “Yangi asr avlodji”, 2001. 38 b.
15. Karimov V. Milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. T., “Ijod dunyosi”, 2002. 32 b.
16. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar // O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarini uchun tajribaviy qo’llanma. Toshkent, “Yangi asr avlodji”, 2001. 176-bet.
17. A. Mavru洛ov. Vatanni sevish mas’uliyati. T., “Sano-standart”, 2015. 67-bet.
18. Oltinov. U. Mafkuraviy targ‘ibotni uslubiy takomillashtirish yo‘llari. Toshkent, MChJ “GARUDA”. 1-bet
19. Muhammad Quronov. Ogohlik: tarix va zamon saboqlari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2015. 40 - bet.

## **MUNDARIJA**

KIRISH .....	3
I. Jismoniy va ma’naviy sog‘lom yoshlarin tarbiyalashda sport turlari muhim vosita .....	7
II. Bolalar-o‘smirlar sport maktablari boshqaruvida rahbarlik madaniyati.....	11
III. Yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashning dolzARB masalalari.....	14
IV. Yosh sportchilar g‘oyaviy immunitetini shakllantirish masalalari.....	18
V. O‘quvchi-yoshlarni ogohlilik va hushyorlik ruhida tarbiyalash.....	23
VI. Globallashuv davri ta’lim - tarbiyasida trener -o‘qituvchilar mas’uliyati.....	29
Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati.....	33

Hasanov A.X.

# **BOLALAR-O'SMIRLAR SPORT MAKTABLARIDA MA'NAVIYATLI SPORTCHI-YOSHLARNI TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI**

*BO'SM rahbarlari, rahbar o'rbinbosarlari, instruktor-metodistlar va trener-o'qituvchilar uchun uslubiy ko'rsatma*

Bosishga 23.03.2021 ruxsat etildi  
Bichimi 60x84 1/16, «Times new Roman» garniturasi, Ofset qog'oz  
Bosma tabog'i 2,25 p.l. Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 17  
«UMID DESIGN» nashriyoti  
«UMID DESIGN» XK bosmaxonasida chop etildi.  
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 22-uy